

O'ZBEK MILLIY HUNARMANDCHILIGINING TARIXIY ASOSLARI

Maroziqov Akmal Abdurashidovich

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Qo'qon, Uzbekistan

PhD, dotsent.

Annotatsiya: Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan hunarmandchilik va amaliy san'atning zardo'zlik, gilam to'qish, kulolchilik, misgarlik, pichoqchilik, yog'och o'ymakorligi, zargarlik, kashtachilik va ko'plab boshqa tur namunalari jahonning bir qator mamlakatlari muzeylarida, ko'rgazma zallarida, shahsiy kolleksiyalarda namoyish qilinganligi va xorijiy xalqlarning e'tirofiga sazovor bo'lgani fikrimizning dalili desak xató bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng o'zbek xalqi o'zining qadimiyligi milliy hunarmandchilik sohalarini qayta tiklash va rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlarni qo'lga kiritdi. Chunonchi, mustaqillik yillarida O'zbekiston hukumati milliy hunarmandchilik merosiga xalqning milliy madaniy boyligi sifatada e'tibor qaratdi. Aynan shuning uchun ham xalqimiz o'z qo'li, mehnati, tafakkuri bilan yaratgan hunarmandchilik merosini asrab-avaylash, qadrlash va unga bunyodkor xalkimizning umumjaxon tamadduniga qo'shgan hissasi sifatida qarash, uni o'rghanish, qayta tiklash hozirgi kunning muxim va dolzarb vazifasiga aylandi.

Kalit so'zlar: arxeologik topilmalar, qadimgi asrlar, o'rta asr tosh, suyak, yog'och, kulolchilik, tasviriy san'at, o'rta asr kulolchiligi, Rishton, yozuv materiallari, o'zbek qog'ozi, Samarqand qog'ozi, Qo'qon qog'ozi, yozuv materiallari, xattotlik, rangtasvir, ustaxonalar, asboblar, metallga ishlov berish, pichoqchilik, misgarlik, kashtachilik, zargarlik buyumlari yasash

HISTORICAL FOUNDATIONS OF UZBEKISTAN NATIONAL CRAFTS

Maroziqov Akmal Abdurashidovich

Kokand State Pedagogical Institute

Kokand, Uzbekistan

PhD, Associate Professor.

Abstract: It would not be wrong to say that the fact that the crafts and applied arts created by our ancestors, such as goldsmithing, carpet weaving, pottery, coppersmithing, cutlery, wood carving, jewelry, embroidery and many other types, are exhibited in museums, exhibition halls, private collections of a number of countries of the world and have received recognition from foreign peoples, is evidence of our opinion.

After the Republic of Uzbekistan gained independence, the Uzbek people received great opportunities to restore and develop their ancient national crafts. For example, during the years of independence, the government of Uzbekistan paid attention to the heritage of national crafts as the national cultural wealth of the people. That is why preserving, appreciating, and viewing the heritage of craftsmanship created by our people with their own hands, labor, and thought as a contribution of our creative people to the global civilization, studying it, and restoring it has become an important and urgent task of our time.

Keywords: archaeological finds, ancient centuries, medieval stone, bone, wood, ceramics, fine arts, medieval ceramics, Rishton, writing materials, Uzbek paper, Samarkand paper, Kokand paper, writing materials, calligraphy, painting, workshops, tools, metal working, knife art, coppersmithing, embroidery, jewelry making.

Kirish.

Arxeologiya ma'lumotlariga ko'ra, hunarmandchilik tarixi juda qadim o'tmishta borib taqaladi. Olimlarning e'tirof etishlaricha, insoniyat tarix ibtidosida dastavval, tosh, suyak va ayrim hollarda yog'ochdan mehnat hamda kundalik ehtiyoj uchun qurollar yasab hunarmandchilik tarixini boshlagan bo'lsa keyinroq esa (so'nggi paleolit, mezolit) qoyatosh va daralarga har xil manzaralarni tasvirlab tasviriy san'atga asos solgan. Qadimgi va o'rta asrlar davri O'zbekiston, umuman, O'rta Osiyo hunarmandchiligi, san'ati, qolaversa madaniyati tarixi bo'yicha juda ko'plab tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo'lib, bu yo'naliш tarixshunoslikda aloxida mavzu hisoblanadi.

Methods and materials.

O'zbek milliy hunarmandchiligining tarixiy ildizi haqida gap ketganda o'zbek qog'ozining tarixiga to'xtalib o'tish joizdir. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki o'zbek qog'ozi tarixi o'rta asrlarga borib taqaladi.

O'rta Osiyoda qog'oz dastlab Samarcanda tayyorlangan. O'n asrdan ko'proq vaqt davomida mashhur bo'lgan Samarcand qog'ozi qachondan boshlab tayyorlanganligi haqida manbaalarda turli ma'lumotlar beriladi. Keng tarqalgan manbalardan birida 751-yilda Talasda bo'lib o'tgan arab va xitoy qo'shini o'rtasidagi jangdan keyin arablar Samarcandda birinchi qog'oz tayyorlash ustaxonasini tashkil qilgani qayd etilgan[1: 12].

Arab tarixchisi Ibn an-Nadim "Fexrest ul-ulum" asarida yozilishicha, arablar 706-yilda Samarcandni istilo qilganida bu shaharda qog'oz ishlab chiqarish korxonalari borligini ko'rib hayratda qolishgan. Arablar Samarcandga yetib kelguncha, boshqa biror joyda qog'ozni ko'rishmagan ekan. Ibn an-Nadim Samarcand qog'ozi Xonbaliq (hozirgi Pekin) qog'ozidan tekis va mayin ekanligini ta'kidlaydi[2: 37].

Demak, O'zbekiston hududida qog'oz V–VIII asrlardayoq tayyorlana boshlangan. Samarcandda tayyorlangan qog'oz o'zining och novvot rangi, pishiq yupqa sathida siyohning tekis yotishi va siyohni oz shimishi kabi bir qator jihatlari bilan boshqa o'lkalarda tayyorlangan qog'ozlardan ajralib turgan. Samarcand

qog’ozi Ipak yo’li orqali Yevropa mamlakatlariga eksport qilingan. IX asrдан XIX asr boshigacha yozuv ashyosi sifatida Samarqand qog’ozi Sharq va G’arb davlatlarida juda ommalashgan.

Mahalliy nizolar tufayli Samarqand ustalari boshqa shaharlarga ko’chib borishi natijasida Buxoro, Toshkent, Qo’qon shaharlarida ham qog’oz tayyorlovchi ustaxonalar ochilgan. XIX asrga kelib Qo’qon qog’ozlari ham mashhur bo’lgan.

Tayyorlangan qog’oz xattot yoki naqqosh qo’liga borguncha, ko’p jarayondan o’tgan. Jumladan, yozishga qulay bo’lishi uchun grunt qilingan. Qog’ozni gruntlashning turli usullari bo’lib: u guruch, bug’doy, tuxum oqi yoki achchiqtosh bilan ohorlangan. Ishlov berilgan qog’oz silliq tosh yoki shisha shar yordamida silliqlanib, salkam bir yil quruq, soya, tekis joyda saqlangan. Uzoq vaqt shunday joyda saqlangan bunday qog’oz xattotning yozishi uchun yaxshi manbaga aylangan[3: 37-38].

Vaqtlar o’tib, Qo’qonda qog’ozgarlik rivoj topa boshladidi. Bu yerga Samarqandlik ustalar ko’chib o’tdilar. Shu tariqa Samarqand ustaxonalarida qog’oz ishlab chiqarish to’xtab, asta-sekin Farg’ona vodiysi ustaxonalarini butun O’rta Osiyoda, ya’ni Turkistonda – Orol dengizidan to Xitoy chegaralarigacha qog’oz ta’minotiga egalik qila boshladilar.[4: 47]

XVIII asrning II yarmi hamda XIX asrga oid qo’lyozmalar, qaydnomalarning aksariyati Qo’qon qog’oziga yozilganligi ma’lum bo’ldi. Chunki, qog’oz ishlab chiqarish bir butun mahallaga birlashtirildi. Qog’oz sifati, miqdori va narxi uchun mas’ul shaxslar tayinlangan. Natijada tez orada Samarqand va Xuroson qog’ozlari Markaziy Osiyoda iste’moldan siqib chiqarila boshlandi. A. Fedchenko Qo’qon qog’ozgarlik usuli Xitoy qog’ozgarlik usuliga juda o’xshashligini ta’kidlab o’tadi. Ushbu masalaga tadqiqotchi N. Habibullayev o’z fikr-mulohazalar bildirib shunday yozadi: «O’rta Osiyolik qog’ozgar ustalar juda qadim zamonlardayoq orttirgan Xitoycha qog’oz tayyorlash usuli, an’ana va ko’nikmalarini asrab qolganliklariga hayratlanishning hojati yo’q. Chunki, o’z ustaxonalari va asbob-uskunalari, qo’l mehnatiga asoslangan uslublarining

nihoyatda eskiligidiga qaramay, ular bu hunarni san'at darajasida ko'tara olganlar hamda a'llo sifatli qog'oz tayyorlash usullarini saqlab qolganlar. Bu ham bo'lsa, bir nechta oilalarda avloddan avlodga o'z hunarini o'rgatish usuli bilan ham amalga oshib kelganligidir[5: 21-22].

Kulolchilik hunarmandchiligi O'rta Osiyoda eng qadimgi hunarlardan biri sanaladi. Darhaqiqat, bu haqida arxeologik topilmalar ashyoviy dalil sifatida guvohlik beradi. Jumladan, E. M. Pesherova o'z tadqiqotlarida O'rta Osiyo hududidagi kulolchilik idishlari tarixini o'rganishga e'tibor qaratib, qadimgi va o'rta asrlardagi kulolchilik ishlari tarixiga baho bergan. N. A. Dimitriyeva va L. I Akimovalar qadimgi dunyo tarixida bu san'atning tutgan o'rnini tahlil qilib, antik davr kulolchiligiga ham baho bergan.

Katta Farg'ona kanalini qazish paytida miloddan avvalgi I ming yillikka oid xumlarning qoldiqlari, Quva shaxridan V-VI asrlarga oid uzunligi 120 sm, diametri 26 sm bo'lgan quvurlar topilgan. Bu quvurlar 4 km uzunlikda ko'milgan va bundan suv o'tkazilganligi aniqlangan.[7: 12]

O'ta asrlar davrida IX-XI asrlarda ham O'zbekiston hududida kulolchilik ravnaq topganligini Binkent kulolchilik sanati namunalaridan ham bilib olsa bo'ladi.[8: 4] Ushbu sirlangan idishlar qisman ko'rib chiqilgan bo'lsada, shuning o'zi o'rta asrlarda o'zbek kulolchilik san'ati taraqqiyotining umumiyligini manzarasiga yangi muhim chizgilar qo'shamdi.

Temuriylar davrida O'zbekiston hududida kulolchilik yangicha tus oldi va rivojlandi. Bu davrda temuriylar davlati poytaxti bo'lmish Samarqand yirik kulolchilik markazi sifatida tanildi. Aynan shu davrda o'zbek kulolchilik bezagining yangi uslubi shakillandi. Bu uslub keyinchalik Toshkent, Buxoro, Shahrisabz, Marv, Niso kabi boshqa kulolchilik markazi uslublariga ham ta'sir o'tkazdi.[9: 29]

XVIII-XIX asr boshlarida M. S. Hamidova Qashqadaryo vohasi hunarmandchiligi tarixshunosligiga oid tadqiqotlari O'zbekiston hududida

kulolchilik qadim tarixiy ildizga ega ekanligini ko'rsatdi va voha tarixini yorituvchi manbalar va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilib berdi.

Keyingi davrlarda O'rta Osiyoda jumladan, O'zbekiston hududida kulolchilik qadimdan rivojlanganligini Termizda olib borilgan tadqiqotlarda ham o'z isbotlaydi. Bunga Yunon-Baqtriya, Kushonlar davriga oid Termiz kulolchilik tarixini o'rganishda to'plangan materiallarni keltirishimiz mumkin. Xususan, o'rta asr kulolchiligin o'rganishda birmuncha muvaffaqiyatlarga erishilgan.[10: 24-25]

XVIII-XIX asrlarda O'rta Osiyo aholisining katta qismini kulolchilik mahsulotlaridan keng foydalanishi bu sohani yanada rivojlanishiga turtki bo'lган.

Farg'ona vodiysining yirik kulolchilik markazi bulgan Rishton qishlog'ida yasalgan yuqori sifatlari buyumlar butun O'rta Osiyoda mashhur bo'lib ketgan edi. Jumladan, 1899-yili Parijda ish boshlagan butunjahon ko'rgazmasi uchun O'rta Osiyodan Rishton buyumlarini tanlab olinishi bu fikrimizni tasdiqlaydi. Tadqiqotchi Y. Golovin o'z xotiralarida bu yerda ustalarning mahsulot ishlab chiqarish sharoitlarini yaxshilash evaziga buyumlarni hatto Yevropa bozorlariga ham chiqarish mumkinligi haqida yozgan edi.

Pichoqchilik san'ati deganda biz pichoq yasash kasbini tushunamiz. Nodir pichoqlar yasashda o'zbek pichoqsoz ustalarining oldiga tushadigan usta kam topiladi. Pichoq yasash boshlang'ich paleolit davridan ma'lum bo'lган. Temir davrida hunarmandchilik paydo bo'lган va rivojlangan. Mis va bronzadan pichoq yasash bronza davriga kelib avj olgan. Temirning kashf etilishi pichoqchilik san'ati taraqqiyotida katta burilish yuz berdi. O'rta asrlarda pichoqchilikning eng rivojlangan joyi arab mamlakatlari bo'lган, Ispaniya va Italiyada esa tez o'sib rivojlanib ketgan. XVI asrda Germaniya, Angliya, Avstriya, Fransiyalarda pichoqchilikni kasb sifatida ta'qiqlab, pichoqni oshxonalarda ishlatishtagan. XVII asr boshlarida pichoqning ochib yopiladigan, pakki, ustara va boshqa cho'ntakda saqlanadigan pakkilar yuzaga keldi. Arxeologik topilmalardan ma'lumki, O'rta Osiyo territoriyasida million yil avval 2-ming yillikga oid pichoq namunalari topilgan. Bolaliktepa, Afrosiyob, Varaxsha devorlariga ishlangan rasmlardan

ma'lum bo'ldiki, pichoq uy-ro'zg'ordan tashqari harbiy quroq sifatida ishlataligan. VI—XII asrlarda pichoq yasash rivojlanib uni bezash texnologiyalari o'zgargan. XV—XVII asrlarda yonga osib yuriladigan pichoqlarning turli xillari paydo bo'ldi. Buni Navoiy, Bobur asarlarida ishlangan miniatyuralardan ko'rish mumkin. Keyinchalik pichoqchilikning o'ziga xos maktablari paydo bo'ldi.[11: 248] Farg'ona vodiysi, Samarqand, Buxoro, Tashkent, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo qadimdan pichoqchilik markazlari bo'lib, ular o'zining ishlash texnologiyasi, shakli, katta-kichikligi va bezaklari bilan farq qilgan.

O'rta Osiyoda qadimdan metallni qayta ishlash, ya'ni hunarmandchilik qurollari ishlab chiqarish uchun sharoit deyarli mavjud edi. Misning tabiiy zapaslari, kumush,qurg'oshin alyuminiy kabi materiallar juda ko'p edi. Hunarmandlar qadimdan bir-biri bilan birikib bir mahallada yashaganlar, shuning uchun mahallalarining komi ko'pchilik qaysi hunar bilan shug'ullansa shu nom bilan yurgizilgan. Masalan, zargarlik bilan shug'ullansa zargarlik (zargaron), misgarlik bilan shug'ullansa misgarlik (misgaron) va hokazo mahallalar deb yuritilgan. Buxoroda «Sufikordgar» qishlog'ining komi hali ham saqlanib qolgan. U yerda hozir ham pichoqsozlar avlodiy yashaydi. O'rta Osiyo territoriyasidagi viloyatlarda bunday mahallalar ko'p bo'lgan. Pichoqdan kesuvchi asbob tariqasida kunda foydalanilsa, qadimda O'rta Osiyoda erkaklarning eng zarur ish quroli, bezagi tariqasida foydalanilgan. Pichoqlarni badiiy bezash ham katta rol o'ynagan. Shuning uchun ham Sharq madaniyatining eng yaxshi an'analarini qayta tiklash va o'zlashtirish natijasida O'zbekiston jumhuriyatidagi pichoqsozlar milliy pichoqni san'at darajasiga ko'targanlar. Mashhur venger sayyohi A. Vamberi o'zining ajoyib "O'rta Osiyo bo'ylab sayohat" asarida Qashqadaryoning pichoqchiligi haqida bunday deydi: "Bir xillari sifat jihatidan hisorlilarnikidan ustun bo'lmasa ham, ammo, butunlay O'rta Osiyoga tarqalgan bo'lib, xo'jalar tomonidan hatto Eron, Arabiston, Hindistonga olib bordilar va o'z mahalliy joyidan ko'ra, chet ellarda pichoqlar 3-4 baravar qimmat sotilar edi".

Pichoq O'rta Osiyoda, pichoqning oshxonada ishlatiladigan. XVII asr

boshlaridan esa ochib-yopiladigan (cho'ntakda saqlanadigan-pakki, ustara va b.) xillari ham yuzaga kelgan. O'zbekiston territoriyasidan millodan avvalgi 2-ming yillikka oid pichoq namunasi topilgan. Afrosiyob, Bolaliktepa, Varaxsha devorlariga chizilgan rasmlardan pichoqning uy-ro'zg'ordan tashqari harbiy quroq sifatida foydalanilganligini ham anglash mumkin. VI-XVI asrlarga oid pichoq namunalari metall tarkibining, pichoq yasash texnikasining va bezaklarining o'zgarib, taraqqiy eta borganligini tasdiqlaydi.[12: 77]

Navoiy, Bobur asarlariga ishlangan miniatyuralarda (XV-XVII-asrlar) yonga o'sib yuriladigan pichoqlarning turli xil namunalari ko'rsatilgan. Farg'ona vodiysi, Buxoro, Samarqand, Xorazm, Toshkent, Surxondaryo va Qashqadaryoda pichoqning qadimiy markazlari bo'lган. Hozir O'zbekistonda 20 ga yaqin pichoq markazlari bor. Parkent, Shahrixon, Chust, Qorasuv, Qo'qon, Chimyon, Boysun, Buxoro va x. k. Chust, Shahrixon, Qorasuvda (Farg'ona vodiysi) ishlangan pichoqlar milliy shaklining nafisligi, ixcham va o'tkirligi bilan qimmatlidir. Bu pichoqlar respublikamizda va uning tashqarisida muhim sovg'a sifatida ham qadrlanadi.[13: 78]

Qadimdayoq kashtachilik hunari san'at darajasiga ko'tarilgan bo'lib, buni badiiy kashtachilik deb ham yuritish odat tusiga kirgan. Kashta – (Fors - chizilgan, tortilgan) – amaliy bezak san'atining keng tarqalgan turi hisoblanadi. Igna bilan tikib tushurilgan gul, tasvir, naqsh matoga tushirib tikiladi. Kashta tikish turli usullarda avvaldan andoza yordamida tushirilgan gul naqsh asosida, ba'zan matodan iplari sug'urilib tayyorlangan asosda sanama uslubida bajariladigan xalq amaliy san'at turlaridan biri hisoblanadi. [14: 7]

Results

Hozirgacha buyumlar o'ziga xos go'zallik, nafis bezaklarning rang-barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega. Buni arxeologik topilmalar va yozma manbalar isbotlab bermoqda. O'zbek kashtachiligi iqlimi, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda barcha kasb-hunarlarini bilan birgalikda rivoj topgan. XIV-XV asrlarga mansub miniatyuralar orqali

kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko`rish mumkin. Ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo Amir Temur saroyida o`zbek milliy kashta bezaklarini ko`rganini kundaligida yozib qoldirgan. Kamoliddin Behzod "Zafarnoma"ga ishlagan. "Temur taxtda" miniaturasida chodirga ishlangan kashtani ham aks ettirgan.

Kashtachilik o`zbek amaliy bezak san'ati turlari orasida o`zining qadimiy an'analariga ega bo`lgan san'at turi sifatida savdo-hunarmandchilik shaharlarida va yirik qishloqlarda keng tarqalib kelgan. San'atning ushbu turi o`zining poetik rang-baranglaining saqlab qolishi bilan birga xalq orasida qadrlanib, o`z mohiyatini boyitib bordi. O`zbek kashtachiligi qo'shni xalqlar kashtachiligi ta'sirida boyidi va rivojlandi. O`zbek kashtalariga e'tibor berilsa, unda hind, xitoy, rus, qozoq, qirg'iz va tojik kashtachiligi usullarini uchratish mumkin.

Kashtachilik san'atida har bir millatning o`ziga xos eng ko'p qo'llaydigan naqshlari bo'ladi. O`zbek kashtalarida o'simliksimon va geometrik naqshlar ko'p qo'llaniladi. O`zbek kashtado'zlari buyum bezaklarida amaliy bezak san'atining boshqa turlaridagi naqshlardan andoza olganlar, kashtalarda o'simliksimon tasvirlar, shox, gulband, guldastalar ko'p uchraydi.

Kashtachilik san'atida har bir millatning o`ziga xos eng ko'p qo'llaydigan naqshlari bo'ladi.

O`zbek kashtachilik mahsulotlarining qadimiy xillari deyarli saqlanmagan. Muzeylardagi palak, so'zana, choyshab, kirpech, zardevor singari badiiy buyumlar va kashtali kiyimlar faqat XIX asrga mansub.

Hozirgi paytda an'anaviy kashtachilik O`zbekistonning barcha hududida va hatto, bu tur mavjud bo'limgan Xorazmda ham qayta tiklanmoqda (bugun Xivadagi Ichanol'a majmuasida yosh tikuvchi qizlar O'rta va Yaqin Sharq me'moriy bezaklari bo'yicha kitoblardan olingan eskizlar bo'yicha o`ziga xos kashtachilik mahsulotlarini ishlab chiqarmoqda). Shu bilan birga, zamonaviy kashtachilik rivojida ko'proq badiiy maktablarning ilgarigi mahalliy xususiyatlari

bilan emas, balki bozor omillari talablari bilan bog'liq o'ziga xos xususiyat vujudga keldi.

Bugungi kunda kashtalarni tayyorlash va sotish bo'yicha ikki yo'naliш, guruh mavjud. Birinchi yo'naliш eksportga, keng bozor ehtiyojiga yo'naltirilgan bo'lib, unda mualliflar tashabbusi kuchli ekani seziladi. Ikkinci yo'naliш uncha katta bo'limgan hududda (qishloq, tuman) mahalliy xususiyatga ega bo'lib, u XX asr ikkinchi yarmida vujudga keldi. Bu yo'naliш mahsulotlaridan mahalliy an'analarda foydalaniлadi.[15: 62]

Kashtachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha bu ikki guruh mahsulotlari о'rtasidagi farq ularning sifatida ko'rindi va shunga ko'ra, ularning xarid qilinish qobiliyati ham belgilanadi. Tabiiyki, XIX asr eng yaxshi an'anaviy kashtachiligini qayta tiklashga intilgan birinchi guruh ustalarining mahsulotlari yetakchi o'rin egallaydi.

Discussion

Qadimdan O'rta Osiyo hunarmandlari metalldan qanday buyumlar tayyorlagan?

O'rta Osiyoda qadimdan metallni qayta ishslash, ya'ni hunarmandchilik qurollari ishlab chiqarish uchun sharoit deyarli mavjud edi. Misning tabiiy zapaslari, kumush,qurg'oshin alyuminiy kabi materiallar juda ko'p edi. Hunarmandlar qadimdan bir-biri bilan birikib bir mahallada yashaganlar, shuning uchun mahallalarining komi ko'pchilik qaysi hunar bilan shug'ullansa shu nom bilan yurgizilgan. Masalan, zargarlik bilan shug'ullansa zargarlik (zargaron), misgarlik bilan shug'ullansa misgarlik (misgaron) va hokazo mahallalar deb yuritilgan. Buxoroda «Sufikordgar» qishlog'inining komi hali ham saqlanib qolgan. U yerda hozir ham pichoqsozlar avlodи yashaydi.

Qadimdan O'rta Osiyo hunarmandlari matodan nimalar tayyorlagan?

Qadimdayoq kashtachilik hunari san'at darajasiga ko'tarilgan bo'lib, buni badiiy kashtachilik deb ham yuritish odat tusiga kirgan. Kashta – (Fors - chizilgan, tortilgan) – amaliy bezak san'atining keng tarqalgan turi hisoblanadi. Igna bilan

tikib tushurilgan gul, tasvir, naqsh matoga tushirib tikiladi. Kashta tikish turli usullarda avvaldan andoza yordamida tushirilgan gul naqsh asosida, ba'zan matodan iplari sug'urilib tayyorlangan asosda sanama uslubida bajariladigan xalq amaliy san'at turlaridan biri hisoblanadi.

Xalqimizning ming yillar davomida azaliy qadriyatlarimizni o'zida mujassam etib, ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib kelayotgan o'zbek kandakorligi san'atining barcha turlari qatorida alohida ahamiyat kasb etadi.

Kandakorlik forscha "Kandakorn" so'zndan olingen bo'lib, kesma degan ma'noni bildiradi. Kandakorlik ganch, yog'och o'ymakrligi va miskarlikdan tubdan farq qiladi. Kandakorlik miskarlik bilan chambarchas bog'langan sohadir. Miskarlikda mis buyumlarni miskarlar yasasalar, kandakorlar esa mis buyumlargaga naqshlarni po'lat qalamlar bilan kesib yaratadilar. Kandakorda miskarda bo'lgani kabi o'choq ham, dam ham bo'lmaydi.[16: 3-4]

Conclusion

Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning ko'plab hududlarida mis buyumlargaga naqsh o'yish sohasini kandakorlik, naqsh o'yuvchi ustani esa kandakor deb talaffuz qilingani aniqlandi.

Tadqiqotlar davomida Arxeologlar yurtimiz hududidan eramizdan avvalgi IV ming yillikka mansub misdan yasalgan buyumlarni topishgan. Mis va bronzada buyumlar yasash eramizdan avvalgi II - I ming yillikdan keng yoyila boshlagan.

Arxeologlar bu davrga mansub qadimiy yodgorliklar joylashgan hududda olib borgan qazilmalar chog'ida qilich, xanjar, nayza uchi singari qurol-aslahanamunalari, turli uy-ro'zg'or buyumlari, taqinchoqlar (jumladan, munchoqlar), otning bronzadan yasalgan anjomlari va boshqa metall ashyolar topishgan. Bronza va misdan buyumlar yasash keyingi asrlarda ham davom etgan. XI asrdan boshlab esa arablarning O'rta Osiyoni bosib olishi bilan bog'liq holda, metall buyumlarni o'simliksimon va handasaviy motivlar hamda epigrafika bilan bezatish keng yoyilgan.

References

1. Балаченкова А. П История бумаги и бумажного производства. Санк-Петербург, 2011. – Б. 12.
2. Xadjimetov B. Mashhur Samarcand qog’ozi: tarix va zamonaviylik uyg’unligida // San’at. – 2018. – №2. – Б. 37.
3. Yuqoridagi maqola.... – Б. 37–38.
4. Ибрагимов Б., Эсонов З. Фарғона ҳунармандчилик мактаби. – Т.: Фан ва технологиялар марказининг босмахонаси, 2010. – Б.47.
5. Yevropa va Osiyo hunarmandchiligi / O’quv-uslubiy qo’llanma, T. Madaminov va boshq.: Adabiyot uchqunlari, 2019. – Б. 21-22.
6. Ибрагимов Б., Эсонов З. Фарғона ҳунармандчилик мактаби. – Т.: Фан ва технологиялар марказининг босмахонаси, 2010. – Б.12.
7. Бобобеков X. Қўқон тарихи. – Т., 1996. – Б. 101.
8. Imomberdiyev R. Binkent kulollari san’ati // San’at. – 2000. – № 1. – Б. 4.
9. Алиева С. Самарқанд кулолчилиги // San’at. – Т., 2004. – № 3-4. – Б. 29.
10. Mahmudov. A. Farg‘ona vodiysining an’anaviy hunarmandchiligi rivojlanishi va taraqqiy etishi (pichoqchilik misolida) / “Qo’qon xonligi davlatchilik tarixi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Т., 2022. – Б. 248.
11. Murtozayev M. Z., Kushakov A. A. Texnologiya va dizayn metallarga ishlov berish texnalogiyasi // Darslik. – Т.: Fan va texnologiya, 2022. – Б. 77.
12. Murtozayev M. Z., Kushakov A. A. Texnologiya va dizayn metallarga ishlov berish texnologiyasi... – Б. 78.
13. Boboyeva R. A. O’zbek milliy hunarmandchiligi san’ati tarixi va uning rivojlanishi // “O’zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar” mavzusidagi Respublika 21-ko’p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari. – Т., 2020. – Б. 7.

14. Mamasoliyeva Sh. L. Xalq hunarmandchiligi // O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU, 2021. – B. 62.

15. Абдуллаев Т. XIX–XX асрларда ўзбек кандакорлиги. – Т.: Фан, 1974. – Б. 3-4.